

**“Olmaliq KMK” AJ
kontragentlarini (ishbilarmon
hamkorlarini, sheriklarini) tekshirish
tartibi bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, shuningdek ilg‘or xalqaro amaliyot asosida O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv a‘zolari, ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy bo‘linmalar (keyingi o‘rinlarda - Kombinat deb yuritiladi) tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini qo‘llash, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma (bitim) tuzishda xarid jarayonlari ishtirokchilarini hamda ishbilarmon sheriklarni (kontragentlarni) tanlash va tekshirish kabi lozim darajadagi ehtiyotkorlik choralarini qo‘llagan holda Kombinatning iqtisodiy, moliyaviy, texnikaviy, sud-huquqiy va soliq xatarlarini kamaytirish va bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Kombinatning xarid jarayonlari ishtirokchilarini, xorijiy investorlarni, potensial kontragentlarni, ishbilarmon sherik va hamkorlarini tekshirishning maqsadi quyidagi mezonlarga asoslanadi:

Kombinat xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan xavf-xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish;

Insofsiz, ishonchsiz Kontragentlar (hamkorlar, sheriklar, investorlar) bilan shartnoma (bitim) tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoxud xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini, to‘lovchanlik qobiliyatini to‘g‘ri, aniq va xolis baholash;

AQSH, Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar, Kollektiv g‘arb davlatlari (Avstraliya, Albaniya, Andorra, Buyuk Britaniya, Islandiya, Kanada, Lixtenshteyn, Mikroneziya, Monako, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Janubiy Koreya, San-Marino, Shimoliy Makedoniya, Singapur, Tayvan (Xitoy), Ukraina, Chernogoriya, Shveysariya, Yaponiya) sanksiyalari talablariga duchor bo‘lgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish xavfini minimallashtirish;

Kontragent tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xavfini minimallashtirish;

Shartnomaviy munosabatlarni Kombinat uchun salbiy oqibatlersiz tugatish imkoniyatini ta‘minlash;

Kombinat uchun “ikkilamchi” sanksiyalar xavfini minimallashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 15-moddasiga muvofiq, Kontragentlar bilan shartnoma (bitim) tuzish to‘g‘risidagi qarorni har tomonlama o‘rganib chiqib, lozim darajadagi ehtiyotkorlik choralarini qo‘llagan holda qabul qilish.

4. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish, xaridlarning barcha ishtirokchilari o‘rtasida aloqa (affillanganlik va yakuniy benefitsiarlar) mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.

5. Tekshiruv ushbu Yo'riqnomaning 7- va 8-bandida belgilangan holatlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan eng kamida bir yilda bir marotaba amalga oshiriladi.

6. Ushbu Yo'riqnomaning 7- va 8-bandida ko'rsatilgan istisno holatlardan tashqari, xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish natijalari bo'yicha xulosa olinmasdan turib shartnomani (bitimni) imzolash va (yoxud) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha kontragentlar tekshirilmaydi.

8. Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan ham amalga oshirilmasligi mumkin:

Basharti, Kombinat o'z tarkibidagi bo'linmalar bilan o'zaro shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan yoxud Kombinat tarkibidagi bo'linmalar o'rtasida o'zaro shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan bo'lsa;

Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, tabiiy gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, ichimlik suv ta'minoti, suv chiqarish, oqova suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchisi hisoblangan kontragentlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishilayotgan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasining Tabiiy monopoliya subektlarining Davlat reestriga kiritilgan kontragentlar bilan o'zaro shartnomaviy munosabatlarga kirishilayotgan bo'lsa.

9. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy atama va tushunchalardan foydalanilgan:

aloqador shaxslar – Kombinat va uning tarkibidagi xodim bilan birga boshqa tijorat tashkilotlarning ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar (aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno);

Xizmat – Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil qilish, muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan ichki nazorat tuzilmasi – **Komplaens-nazorat xizmati** tushuniladi;

davlat xaridlarining subektlari — davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining mas'ul ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

Mas'ul ijrochi – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarda tuzilgan xarid komissiyasining a'zolari;

ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari – Kombinat xodimlarining xizmat mavqei va (yoxud) egallab turgan lavozimidan bevosita yoxud bilvosita naf ko'rish maqsadida hamkorlik o'rnatish va (yoxud) bunday hamkorlikni saqlab qolish uchun xodimning ovqatlanish, transport, yashash va boshqa shaxsiy xarajatlarini uchinchi shaxslar tomonidan qoplab berilishida ifodalanadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar buzilganligi to'g'risida vijdonan xabar berish – Kombinat xodimi (shu jumladan, barcha bo'g'indagi rahbar xodimlar) tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (yoxud sodir etishga suiqasd qilinganligi) to'g'risida, ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali asosligiga ishonch hosil qilgan holda yo'llangan murojaat;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoxud jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor);

kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoxud ushbu Kontragent uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoxud boshqacha tarzda uning harakatlarini bevosita yoxud bilvosita nazorat qilish huquqi yoxud imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

korrupsiya – Kombinat xodimining o'z mansab yoxud xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

korrupsiyaviy harakatlar – Kombinat xodimi tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat yoxud harakatsizligi (qilmishi) uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali porani, ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tUSDagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vada qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoxud) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar olish, xodim tomonidan pora olish yoxud qonunga xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat (lavoziM, mansab) mavqeidan qonunga xilof ravishda foydalanishi;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – korrupsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish (harakat yoxud harakatsizlik);

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki normativ hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Kombinat xodimlari (shu jumladan, Boshqaruv a'zolari) tomonidan yuqori darajadagi kasbiy va odob-ahloq qoidalariga asosan faoliyat olib borishni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – Kombinat xodimlari yoxud uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat xodimlari (shu jumladan, barcha darajadagi va bo'g'indagi rahbarlar) nomidan va (yoxud) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'shimcha shart – Kombinat tomonidan tuziladigan barcha shartnomalarga kiritilishi majburiy bo'lgan maxsus qoidalar yig'indisi bo'lib, ushbu qoidalar Tomonlar zimmasiga xo'jalik shartnomalarini (bitimlarini) tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligining qoida va talablariga qat'iy rioya qilish majburiyati va mas'uliyatini yuklaydi;

lozim darajadagi ehtiyotkorlik - Kontragentni (shu jumladan, Yetkazib beruvchilarni, Xaridorlarni, Puduratchilarni, Investorlarni, Kreditorlarni) tanlashdan avval maxsus axborot manbaalaridan foydalangan holda o'tkaziladigan tegishli ekspertiza bo'lib - bunda kontragentning soliq organlarida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tganligini, ishchanlik obro'sini, ishlab chiqarish quvvatlari (bazasi) va malakali xodimlarining mavjudligini, to'lovchanlik qobiliyatini, moliyaviy ahvolini va shartnoma (bitim) bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirish kabi tadbirlarni o'z ichiga olgan tezkor-tahliliy harakatlar yig'indisidir;

manfaatlar to'qnashuvi – Kombinatda muayyan lavozimni egallab turgan xodimning bevosita yoxud bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoxud shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlar manfaatlar to'qnashuvi deb e'tirof etiladi;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoxud tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoxud nomoddiy naf;

Sanksiyaviy komplaens – xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro tashkilotlarning iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi sanksiyalarni joriy qilishi natijasida yuzaga keladigan potensial xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va xolis baholash, shuningdek sanksiyalarning Kombinat moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga, tashqi savdo aloqalari, investitsiya va xorijiy kreditlarni jalb qilishga qaratilgan faoliyatiga ta'sirini yumshatish (minimallashtirish) va bartaraf qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi;

Bloklovchi sanksiyalar – bu turdagi sanksiyaviy ro'yxatga kiritilgan jismoniy yoxud yuridik shaxslar har qanday turdagi hamkorlik aloqalarini amalga oshirish ta'qiqlanadi.

Xususan, jismoniy shaxslar Yevropa Ittifoqining bloklovchi sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, u holda Yevropa Ittifoqi boshqa kompaniya va tashkilotlardan bunday shaxslar bilan pul muomalasida, boshqa resurslarni taqdim etishda, imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi har qanday hamkorlikni ta'qiqlaydi.

Basharti jismoniy shaxslar OFAC (AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish idorasi) ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, AQSH boshqa kompaniya va tashkilotlarga ro'yxatdagi shaxslarga tovarlar yetkazib berish, xizmatlar taqdim etishni, ularga iqtisodiy manfaat keltiruvchi har qanday harakatlarni amalga oshirishni ta'qiqlaydi.

Tarmoqlar kesimidagi (sektoral) sanksiyalar – bu turdagi sanksiyalar kompaniya va tashkilotlarga nisbatan joriy etilgan bo'lib, sektoral sanksiyalar ro'yxatiga tirkalgan kompaniyalarni moliyalashtirishni nazarda tutuvchi har qanday hamkorlik ta'qiqlab qo'yiladi. Amaliyotda sektoral sanksiyalar banklar, neft sanoati, qazib olish korxonalarini, mudofaa sanoati korxonalariga nisbatan keng qo'llanadi.

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi - (keyingi o‘rinlarda matnda - ishtirokchi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomilida Kombinat ehtiyojlari uchun xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy/yakka tartibdagi tadbirkor yoxud yuridik shaxsdir;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Kombinat xodimi tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoxud xodimga aloqador bo‘lgan boshqa shaxslar tomonidan xodimning mansab yoxud xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoxud nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishidagi shaxsiy naf olish imkoniyatida ifodalanadi (shaxsiy, xususiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoxud notijorat manfaatlari);

xodim (xodimlar) – Kombinat ijro apparati bo‘linmalari yoxud tarkibiy bo‘linmalar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs, shu jumladan Kombinat boshqaruvi a’zolari;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoxud foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoxud axborot egasining ichki normativ hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborotni anglatadi;

xaridlar tashabbuskori – xaridlar predmetini va ehtiyojini asoslagan holda o‘rnatilgan tartibda talabnoma kiritgan Kombinat ijro apparati va (yoxud) tarkibidagi bo‘linma;

50% (ellik foiz) qoidasi – ushbu qoidaga ko‘ra, basharti Kombinatning potensial kontragenti xalqaro sanksiyalar ro‘yxatiga tirkalgan (kiritilgan) kompaniyalar yoxud shaxslarga tegishli bo‘lsa, ya’ni sanksiya ostidagi kompaniya va shaxslarning ulushi 50% (ellik foiz) yoxud undan ko‘p bo‘lsa, Kombinatning kontragentiga nisbatan ham sanksiyalar qo‘llanadi. Muammo shundaki, bunday tashkilotlar (ya’ni, potensial kontragentlar) xalqaro sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘ladi. Hattoki xalqaro sanksiyalarning ro‘yxatlarini rasmiy manbaalardan tekshirish ham potentsial kontragent maqomidagi jismoniy yoxud yuridik shaxsning sanksiyalar ta’siri ostida emasligiga kafolat bermaydi.

Shu boisdan ham Kontragentlarni tekshirish jarayonida (bosqichida), uning haqiqiy aloqalarini aniqlash maqsadida bunday kontragentning tashkiliy tuzilmasini (barcha ta’sischilarini, yakuniy benefitsiarlarini) batafsil o‘rganish talab qilinadi.

yaqin qarindoshlar – ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar va opa-singillar, er (xotin), farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolar, buvilar, nevaralar, shuningdek urning (xotinning) ota-onasi.

II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

10. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish, ishtirokchilar tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlar baholash uchun ochilganidan keyin, biroq

xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

11. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini (kontragentlarni) tekshirish mas'uliyati va javobgarligi Xarid komissiyasi raisiga yuklatiladi. Basharti xaridlar to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish shartlarida amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunda kontragentlarni tekshirish shartnoma (xaridlar) tashabbuskori hamda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday holatda, Xarid komissiyasining bayonnoma qarori bilan kontragentlar tekshiruvini o'tkazish uchun Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidan mas'ul ijrochi tayinlanadi.

12. Kontragentlar tekshiruvi, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan xarid tashabbuskoridan hamda xaridlar ishtirokchilaridan ushbu Yo'riqnomaning 16-bandida ko'rsatilgan hujjatlar to'plami to'liq olingan sanadan 5 (besh ish) ish kundan ortiq bo'lmagan muddat mobaynida amalga oshiriladi.

13. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkoni bo'lmagan taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasining tegishli bayonnoma qarori bilan qo'shimcha yana 3 (uch ish) ish kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

14. Kontragentlar tekshiruvini shoshilinch tartibda o'tkazish zarurati mavjud bo'lgan holatda, shartnoma tashabbuskori tomonidan bunday shoshilinchlik yozma (rasmiy) shaklda asoslantirilgan holda, tekshiruvni o'tkazishning zarur muddatlari ko'rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Kontragentlar tekshiruvini shoshilinch tarzda o'tkazish to'g'risidagi qaror Xarid komissiyasining tegishli majlis bayonnomasi qarori asosida yo'l qo'yiladi.

Bunda, barcha hujjatlar to'plami mas'ul ijrochiga to'liq taqdim etilgan sanadan boshlab unga shoshilinch tarzda kontragent tekshiruvini o'tkazish uchun eng kamida 3 (uch) ish kundan kam bo'lmagan muhlat beriladi.

15. Kontragentlarni tekshirish uchun lozim bo'lgan hujjatlarni to'plash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoxud shartnoma tashabbuskori (basharti xaridlar to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa) mas'ul bo'ladi.

16. Kontragentlarni tekshirish uchun Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidagi mas'ul ijrochiga quyidagi hujjatlar to'plami to'liq shaklda taqdim etiladi:

kontragentlarning rahbari tomonidan ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

kontragentlardan olingan hujjatlar nusxalari (ushbu Yo'riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda);

kontragentlarning komplaens xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ichki normativ hujjatlarining (mavjud bo'lsa) nusxalari (Siyosatlar, Nizomlar, Odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Dasturlar va h.k.z).

17. Ushbu Yo'riqnomaning 16-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, kontragentlarning korrupsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlari hamda uning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma bundan mustasno.

Kontragentlar tomonidan o'zining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlari hamda yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish rad etilgan taqdirda, shartnoma tashabbuskori bu haqda kontragentlar tekshiruvini amalga oshirish uchun mas'ul qilib belgilangan Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidagi mas'ul ijrochiga, Komplaens-nazorat xizmatiga yoxud Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlariga yozma ravishda axborot beradi.

18. Kontragentlardan olingan barcha hujjatlar notarial tarzda yoki kontragentlarning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bunda, kontragentlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar amalda bo'lishi, davlat reestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

19. Kontragentlarni tekshirish uchun ma'lumotlarni to'plash, kontragent to'g'risida, kontragentning mulkdorlari (egalari) va rahbarlari faoliyati to'g'risida xolis va ishonchli fikrni shakllantirish va ega bo'lish, shuningdek, taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi yoxud ularning ishonchsizligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) tasdiqlovchi belgilarning yo'qligini aniqlashtirish maqsadida Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi mas'ul ijrochi tomonidan tahlil qilinadi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidagi mas'ul ijrochi tomonidan quyidagi holatlar tahlil qilinadi:

Kontragentlar tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar;

Ushbu Yo'riqnomaning 2-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlarni kontragentlardan olish imkoni bo'lmagan taqdirda yoxud olingan hujjat va axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirganlik alomatlari) belgilari mavjud bo'lsa, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidagi mas'ul ijrochi tomonidan kontragentlar tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada alohida belgi qo'yiladi;

Ushbu Yo'riqnomaning 3-ilovasida ko'rsatilgan axborot manbalaridan, ochiq manbalardan olingan ma'lumotlardan, shuningdek zarurat tug'ilganda, boshqa manbalardan ham qonunchilikda belgilangan tartibda hech qanday moneliksiz foydalanishi;

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnoma yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarda (korxonalar, sexlar va boshqalar) ichki axborot resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reestri va boshqalardan.

20. Kontragentlarni tekshirish doirasida Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi mas'ul ijrochisi tomonidan foydalanilgan manbalar va ulardagi axborot hamda ma'lumotlar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim.

21. Zarurat bo'lganda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tekshiruv davomida kontragentlarni joyiga chiqqan holda o'rganishi ham mumkin. Bunday shakldagi tekshiruvni o'tkazish uchun mas'ul ijrochi o'z bo'linmasi rahbaridan rasmiy shakldagi ruxsatni olgan bo'lishi lozim.

Sayyor tekshiruv davomida Kontragent tashkilotining rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda kontragentdan dastlab olingan hujjatlar, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari sanab o'tiladi. Olingan hujjatlar nusxalarining va kontragent tashkilotining rahbari (vakolatli vakili) tomonidan taqdim etilgan izohlar ro'yxati tekshirilayotgan kontragent tashkilotining rahbari (vakolatli vakili) hamda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan imzolangan alohida ro'yxat ko'rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi lozim.

III. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

22. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1) Kontragentning huquqiy layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi hamda Kombinat bilan o'zaro munosabatlari tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun Kontragent ixtiyorida zarur texnik, moliyaviy, moddiy, yuksak malakali xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi va tegishli vakolatlarning mavjudligi;

v) soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) Kontragentning Insofsiz ijrochilar yagona reestrda qayd etilmaganligi;

2) Kontragentning ish sohasidagi obro'-nufuzi, ishchanlik obro'si;

3) Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparatidagi hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) xodimlari hamda Kontragent o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holatining mavjud emasligini tekshirish.

Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruvni to'liq o'tkazish majburiy hisoblanadi, ushbu yo'nalishlar (talablar) eng minimal yo'nalishlar (talablar) bo'lib, ularni qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi Mas'ul ijrochisining tekshiruv yo'nalishlari bo'yicha ro'yxati, xarid komissiyasining alohida bayonnomalar qarori bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga solishga oid qonunchilikka zid bo'lishi yoxud raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelmasligi shart.

23. Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasidagi mas'ul ijrochi foydalanishi mumkin bo'lgan axborot manbalaridan olingan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi va ushbu Yo'riqnomaning 25-27-bandlarida ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan kontragentni tekshirish natijalari to'g'risida xulosada ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjud yoxud yo'qligini belgilaydi.

24. Ushbu Yo‘riqnoma amalga kiritilgunga qadar Kombinat ijro apparati va/yoxud uning tarkibiy bo‘linmalar (korxonalar va sexlar) bilan shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan amaldagi kontragentni tekshirishda, Moddiy-texnika ta‘minoti boshqarmasining mas‘ul ijrochisi ushbu Kontragent bilan bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, kontragent bilan o‘zaro hamkorlik tajribasi (tarixi), natijalari, shuningdek ushbu kontragent bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha kontragentning majburiyatlarni bajarishdagi halolligi kabi ko‘rsatkichlarni tekshiradi va yozma shaklda xulosa taqdim etadi.

Yangi kontragentni tekshirishda, Moddiy-texnika ta‘minoti boshqarmasining mas‘ul ijrochisi tomonidan Kontragentning mavjud shartnomalari, ular bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, kontragent haqida eng kamida beshta boshqa buyurtmachilar (mijozlar/hamkorlar) bergan tavsiyanomalar tahlil qilinadi hamda mavjud imkoniyatlar darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlar oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligi tekshiriladi va o‘zining yozma shakldagi xulosasida bunday faktlarni aks ettiradi.

25. Kontragentning huquqiy layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchligi va u bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida mas‘ul ijrochi quyidagi ma‘lumotlarni aniqlashi lozim:

tadbirkorlik subektlarining yagona reestrda kontragentning mavjudligi;

kontragentning yuridik, pochta manzili va haqiqatdagi (amaldagi) manzili o‘rtasidagi tafovutlar;

kontragent rahbari va ta‘sischilarining F.I.SH.;

kontragent ta‘sis hujjatlaridagi asosiy faoliyat turining Kombinatning xarid predmetiga muvofiqligi;

kontragent faoliyatini tugatish, uni qayta tashkil etish, kontragentga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq faoliyat turlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan litsenziyalar, sertifikat, ruxsatnoma va boshqa hujjatlarning to‘liq mavjudligi va ushbu hujjatlarning haqiqiyliigi;

ochiq manbalardan olingan ma‘lumotlar, shuningdek kontragent tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda uning buxgalterlik hisobotlariga ko‘ra, kontragentda Kombinat oldidagi o‘z shartnomaviy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada aylanma va asosiy mablag‘lar, xususiy kapital, yuksak malakali xodimlar, texnik, moliyaviy, moddiy va zarur bo‘lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

kontragent nomidan Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan jismoniy yoxud yuridik shaxsda (shaxslarda) tegishli vakolatlarning mavjudligi va bunday hujjatlarning haqiqiyliigi;

ehtimoliy kontragentning hukumatning maxsus axborot portalidagi Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilmaganligini aniqlashtirish (https://xt-xarid.uz/registry/bad_suppliers);

kontragentning so'nggi ikki yil ichida Kombinat oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi yoxud bunday majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

kontragentda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi kabi ma'lumot va axborotlar to'planishi hamda tahlil qilinishi shart.

26. Kontragentning ishbilarmonlik va tadbirkorlik sohasidagi obro'-e'tiborini tekshirish doirasida Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi va o'z xulosasida aks ettiradi:

ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoxud rahbarlarining firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoxud boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

kontragent rahbari va moddiy javobgar shaxslariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoxud boshqa davlat organlarida qoralovchi ma'lumot yoxud material va hujjatlarning mavjud emasligi;

kontragent, uning mulkiy egalari yoxud bosh direktor (boshqaruv organlari a'zolari) va boshqa rahbarlarining jinoiy tuzilmalar, ekstremistik va terroristik tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi mavjud emasligi (mas'ul ijrochining imkoniyatlari darajasida);

kontragentning ishbilarmonlik odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurash siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va shu kabi tartib-taomillar hamda ichki normativ hujjatlarining mavjudligi va komplains-nazorat tizimini o'z tashkilotida joriy qilish holati;

kontragentning ta'sisчилari, mulkiy egalari yoxud rahbarlariga (boshqaruv organlari a'zolariga) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

kontragentning ta'sisчилari, (yakuniy benefitsiarlari) mulkiy egalari yoxud rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy yoxud tanqidiy axborot va ma'lumotlarning OAVlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda mavjud emasligi.

27. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tarkibi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoxud bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga ko'ra, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadbirkorlik subektlari Yagona davlat reestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi.

Bunday tekshiruv Kontragentning rahbarlari va ta'rischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoxud mavjud emasligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

kontragentning yagona yoxud mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi – ushbu Xarid jarayonining boshqa ishtirokchisining rahbari yoxud uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor bo'linma xodimlari yoxud Kombinat ijro apparatidagi bo'linmalarning barcha bo'g'indagi xodimlari, shuningdek tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) xodimlari yoxud ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'lmagan aksiyalari yoxud hissalariga, yoxud kontragentning Respublika fond birjasida yoxud yana boshqa bir fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan 5% (besh foiz)dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor bo'linma xodimlari yoxud Kombinat ijro apparati va uning tarkibidagi bo'linmalardagi boshqa xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi, faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan, ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo'lmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor bo'linma yoxud Kombinat ijro apparati va uning tarkibidagi boshqa xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoxud qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

kontragent va Xarid komissiyasining a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa holatlarning mavjud emasligi.

Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligini tekshirish, Kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni, manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash doirasida Kombinat xodimlari tomonidan oshkor qilingan hamda tegishli reestrda kiritilgan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash orqali Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan amalga oshiriladi.

V. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

28. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi ushbu Yo'riqnomaning 4-ilovasida keltirilgan shaklda xulosa yozadi. Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosaga Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan o'tkazilgan tahlil va bunday tahlilni tasdiqlovchi barcha hujjatlar ilova qilinadi.

29. Haqiqiy (real) yoxud yuqori (potensial) manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi uni tartibga solish zarurati to'g'risida choralarni ko'rish bo'yicha Xarid komissiyasi raisi yoxud

tashabbuskor bo'linmaga yozma shaklda asoslantirilgan taklif kiritadi. Basharti, manfaatlar to'qnashuvi alomatlari (belgilari) Kombinat xodimlarida aniqlangan bo'lsa, bu haqda zudlik bilan Komplaens-nazorat Xizmatini xabardor qiladi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoxud mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada batafsil aks ettiriladi.

30. Xatar indikatorlari aniqlanganda, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan kontragent bilan ishlash bo'yicha o'z tavsiya va ko'rsatmalarini Xarid komissiyasi hamda Komplaens-nazorat xizmati boshlig'iga taqdim qiladi (Masalan, Soliq kodeksining 15-moddasiga muvofiq (<https://lex.uz/docs/4674902>) shartnoma asosida avans to'lovlarini amalga oshirishga ta'qiq yoki cheklov kiritish va boshqa lozim darajadagi ehtiyotkorlik choralarini ta'minlash).

31. Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi, kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosani, Xarid komissiyasi raisi, Xizmat boshlig'i hamda shartnoma tashabbuskor bo'linmasiga taqdim qiladi. Xarid komissiyasi raisi, Xizmat boshlig'i yoxud shartnoma tashabbuskor bo'linmasi olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to'g'risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, buning natijasi haqida Xarid komissiyasi yoxud kontragent bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishdagi bayonnomaga batafsil yozma qaydlar kiritiladi.

32. Ehtimoliy (potensial) kontragent bilan Kombinat xodimi o'rtasida haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlansa, bunday holat xarid jarayonini davom ettirishdan oldin Kombinatning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi ichki normativ hujjatiga asosan tartibga solinadi. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish imkoni bo'lmagan taqdirda esa ushbu kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

33. Basharti to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish shaklidagi xaridlar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligi aniqlansa yoxud ehtimoliy (potensial) kontragentda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens-nazorat tizimining joriy etilmaganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar aniqlansa, bunday kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qaror Boshqaruv raisi tomonidan qabul qilinadi.

34. Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to'g'risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo'yicha kelishish va to'lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar yig'ma jildiga qo'shib qo'yiladi hamda dalolatnoma asosida Xarid komissiyasi, Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan Xizmat boshlig'iga uch yil muddat davomida saqlash uchun topshiriladi.

35. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa chiqqan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirilmagan muddatda, Xizmat tomonidan tekshiruv natijalariga oid axborot va ma'lumotlar ushbu Yo'riqnomaning 5-ilovasidagi shaklga muvofiq Kontragentlarni tekshirish reestriga kiritiladi. Bunda, Xizmatga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjat va ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchli ekanligi va zudlik bilan kiritish yuzasidan mas'uliyat va javobgarlik Xarid komissiyasi raisiga hamda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi rahbariga yuklatiladi.

36. Kontragentlarni tekshirish reestri va natijalari, shuningdek tekshiruv uchun ariza, tekshiruv to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar hamda Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan tegishli boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar, kontragent bilan shartnomaviy munosabatlar yakuniga yetgan sanadan boshlab kamida 3 (uch) yil muddat mobaynida Xizmatda saqlanadi.

37. Kontragentlarni tekshirish reestri va ularning natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, tekshiruv yakunlari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shuningdek Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasining mas'ul ijrochisi tomonidan tegishli va boshqa manbalardan olingan ma'lumot va axborotlar "Xizmat doirasida foydalanish uchun yoxud XDFU" maqomiga ega bo'lgan hujjatlar hisoblanadi, bunday axborot va ma'lumotlarni Kombinat xodimlariga hamda xizmat vazifalari vakolatlariga bevosita kontragentlarni tekshirish vazifasi yuklatilmagan xodimlarga, shuningdek uchinchi shaxslarga oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. Yakuniy qoidalar

38. Kontragentlarni tekshirish jarayoni va bosqichlari doimiy ravishda Komplaens-nazorat xizmati tomonidan monitoring qilib boriladi.

39. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ushbu Yo'riqnomaga bevosita ta'sir qiladigan qoidalar o'zgargan taqdirda, Yo'riqnoma qayta ko'rib chiqilishi hamda unga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning
kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini,
sheriklarini) tekshirish tartibi bo‘yicha
Yo‘riqnomaga 1-ilova

**Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida _____
(Xaridlar ishtirokchisi) *
MA’LUMOTNOMA**

№	F.I.SH.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta‘sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta‘sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta‘sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

**so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

MTTB boshlig‘i F.I.SH. (Tabel raqami) _____

MTTB mas‘ul ijrochisining F.I.SH. (Tabel raqami) _____

Xarid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning F.I.SH. va lavozimi _____

Ma‘lumotnoma tuzilgan sana _____

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning
kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini,
sheriklarini) tekshirish tartibi bo‘yicha
Yo‘riqnomaga 2-ilova

Kontragentlarni tekshirish doirasida, ulardan talab qilib olinadigan hujjatlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxs yoxud YaTT shaklida ro‘yxatdan o‘tgan kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YuSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)	Yangi kontragent	Joriy kontragent
1	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi	YuSh / YaTT	Majburiy	Nazarda tutilmagan
2	Soliq hisobiga qo‘yish, shu jumladan STIR to‘g‘risida ma‘lumotlar	YuSh / YaTT	Majburiy	Majburiy
3	Yuridik shaxslarning yagona Davlat reestriga kiritish to‘g‘risida ma‘lumot	YuSh / YaTT	Majburiy	Majburiy
4	Ustav va boshqa ta‘sis hujjatlarining nusxasi	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olinadi
5	Pasport nusxasi	YaTT	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olinadi
6	Ishonchnoma	YuSh / YaTT	Majburiy	Majburiy
7	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsiar mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olinadi
8	So‘nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoxud so‘nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi	YuSh / YaTT	Majburiy	Majburiy
9	Ko‘rsatilgan ishlar/xizmatlarni	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olinadi

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YuSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)	Yangi kontragent	Joriy kontragent
	Bajarish uchun malakali kadrlarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot (xat va / yoxud tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)			
10	Muvofiqlik litsenziyalari va sertifikatleri	YuSh / YaTT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning
kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini,
sheriklarini) tekshirish tartibi bo'yicha
Yo'riqnomaga 3-ilova

Kontragentlarni tekshirishda foydalanish uchun tavsiya etilgan ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - http://registr.stat.uz/enter_form/index.php yoxud <https://orginfo.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr Xizmati - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz mas'ul ijrochilarning yagona reestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro'yxati- <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSH maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (yoxud World-Check ma'lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>
10. <https://home.treasury.gov/policy-issues/office-of-foreign-assets-control-sanctions-programs-and-information>
11. <https://www.gov.uk/government/organisations/office-of-financial-sanctions-implementation>
12. <https://www.consilium.europa.eu/en/policies/sanctions/restrictive-measures-against-russia-over-ukraine/>
13. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=33343533&pos=46;-48#pos=46;-48
(Путеводитель по санкциям и ограничениям против Российской Федерации, введённые после 22 февраля 2022 года (по состоянию на 27.09.2022 г.)
14. <https://ruscifra.ru/sankcii/> (Санкционный список против компаний и граждан России).
15. <https://www.rusprofile.ru/> (Быстрая и удобная проверка контрагентов).
16. https://spark-interfax.ru/#_top (Проверка контрагента, Оценка кредитных рисков, Выявление аффилированности, Мониторинг контрагентов, Поиск бенефициаров).
17. <https://ir-bis.org/> (Проверка физических, юридических лиц и недвижимости на благонадёжность по 20 000 государственным источникам).
18. <https://kontur.ru/focus?p=w04557> (Детальная проверка контрагентов).

Ushbu ro'yxat, mas'ul ijrochi/Tashabbuskor bo'linma tomonidan potensial kontragentni tekshirishda foydalanish uchun **tavsiya etilgan manbalar ro'yxati bo'lib**, zarurat bo'lganda qonunchilik talablariga muvofiq mas'ul ijrochi/Tashabbuskor bo'linma **boshqa manbalardan ham hech qanday moneliksiz istalgancha foydalanishi mumkin.**

Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot

1.	Ishtirokchining ismi	<hr/>			
2.	STIR	<hr/>			
3.	Ro‘yxatga olingan sana	<hr/>			
4.	Yuridik va amaldagi manzili	<hr/>			
5.	Rahbarning F.I.SH.	<hr/>			
6.	Ta‘sischilarning F.I.SH.	<hr/>			
7.	Yakuniy benefitsiarlarning F.I.SH.	<hr/>			
8.	Ishtirokchi, tadbirkorlik subektlarining Yagona Davlat reestrda bor	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
9.	Ishtirokchidan imzo chekuvchi shartnoma tuzishga haqli	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzdorliklarning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
12.	Ishtirokchiga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), bankrotlik tartib-taomillarining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
13.	Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda ishtirokchi haqida qaydning/yozuvning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
14.	Kombinat va uning tarkibida ishtirokchi bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
15.	Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
16.	Manfaatlar to‘qnashuvi / ishtirokchining Kombinat tarkibi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma‘lumotning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
17.	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	Manfaatlar to‘qnashuvlarini tartibga solish chora-tadbirlari tavsifi			

18. qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma'lumotlar
Ish sohasidagi obro'sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma'lumotlar

Mavjud emas / Manba: [havola], [Xarid jarayonlari ishtirokchisining korrupsiyaga oid qoidabuzarligi/poraxo'rliqi tavsifi]

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlarning mavjudligi (vab-saytda taqdim etilgan yoxud mavjud)

Mavjud emas / Manba: [havola], [ishchanlik obro'sining salbiy omillari tavsifi]

20. Ishtirokchining sayti

Ha *Yo'q*

21. Ishtirokchi mavjudligi muddati (yillarda)

Mavjud emas/ Saytning manzili: [havola], faol / faol emas

22. Ishtirokchining moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari miqdori shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli

Ha *Yo'q*

23. Ishtirokchi tekshirish uchun barcha zarur hujjatlarni to'liq taqdim etgan

Ha *Yo'q*

24. Basharti, to'liq taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmagan hujjatlarni ko'rsating:

25. Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar

a) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
b) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
v) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
g) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi] va b.

Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar

Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkinligini ko'rsating

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan MTTBning mas'ul ijrochi/xarid tashabbuskorining xodimi haqida ma'lumotlar

F.I.SH.

Lavozimi va Tabel raqami

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

